

ABDURAHMON JOMIY G'AZALLARIDA INSONIY XUSUSIYATLAR

Ravzatulloyeva Soniya Farxod qizi

Samarqand Davlat universiteti, tojik filalogiya bo'limi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Mashhur tojik mutafakkiri, olim, shoir va yozuvchisi Abdurahmon Jomiy 1414-yil Xarjurd dehasi Jom vilotida tug'ilgan. U tojik xalqining 500 yillik adabiyotini turli sohalarida jamlaydi. Jomiy tojik xalqining iftixori bo'lib u yozib qoldirgan asarlar bizgacha yetib kelgan va hozirgacham o'qib boriladi. Shoirning ta'sirli, mazmunli, ko'p hikmatli she'rlari insonning qalbiga yaxshi joylashadi. Ushbu ilmiy maqolada Jomiyning g'azalotida insoniy xususiyatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Adabiyot, Abdurahmon Jomiy, insonparvarlik, shaxs, qadriyat, ma'maviy-marifiy, tarbiya.

HUMAN TRAITS IN THE GHAZALS OF ABDURAKHMON JOMI

Ravzatulloyeva Soniya Farkhod qizi

**Samarkand State University, 3rd year student of the Tajik Philology
Department**

Annotation. The famous Tajik thinker, scientist, poet and writer Abdurakhmon Jomi was born in 1414 in the Kharjurd village of Jam province. He summarizes 500 years of literature of the Tajik people in various fields. Jomi is the pride of the Tajik people, the works he wrote have reached us and are still read. The poet's touching, meaningful, and wise poems are well-placed in the human heart. This scientific article discusses human traits in Jomi's ghazals.

Keywords. Literature, Abdurakhmon Jomi, humanity, personality, value, moral-enlightenment, education.

ЧЕЛОВЕЧЕСКИЕ ЧЕРТЫ В ГАЗЕЛЯХ АБДУРАХМОНА ДЖОМИ

**Самаркандский государственный университет, студентка 3 курса
кафедры таджикской филологии**

Аннотация. Известный таджикский мыслитель, ученый, поэт и писатель Абдурахмон Джоми родился в 1414 году в кишлаке Харджурд провинции Джам. Он обобщил 500 лет литературы таджикского народа в различных областях. Джоми является гордостью таджикского народа, написанные им произведения дошли до нас и читаются до сих пор. Трогательные, содержательные и мудрые стихи поэта занимают достойное место в человеческом сердце. В этой научной статье рассматриваются человеческие черты в газелях Джоми.

Ключевые слова. Литература, Абдурахмон Джоми, гуманность, личность, ценность, нравственно-просветительская деятельность, образование.

Ko'hna tariximizdan ayonki, ajdodlarimiz inson zotini yuksaklikka ko'targanlar, uni tirik mavjudotlar orasida eng a'losi deb hisoblaganlar. Ajdodlarimizning mukammal jamiyat, odil va ma'rifatli shoh, komil inson haqidagi qimmatli fikrlari hozirgacha o'z qadrini yo'qotmasdan, insoniyatga xizmat qilmoqda. Kishi yuksak fazilatlar va qadriyatlarni egallamasdan, o'zida insonga muhabbat tuyg'usini shakllantirmasdan, go'zal xulqli, odobli, insonparvar bo'lmasdan turib yetuk shaxs, komil inson bo'lib yetishuvi qiyin.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan BMTning 72-sessiyasi qatnashchilariga "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiyani qabul qilish to'g'risidagi taklifi uning jahon miqyosida "jaholatga barham berish, bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinliklarni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan"

bo'lib, tasavvuf ta'limotining eng muhim tamoyillaridan birini hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan. Insonparvarlik tushunchasi lug'atlarda insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shartsharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Unga ko'ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat kishilari haqida g'amxo'rlik insonparvarlikning asosiy masalasidir. Insonparvarlik g'oyalari o'zining uzoq tarixiga ega bo'lib, odamlarning baxt-saodat va adolatga erishish orzulari tarzida qadimdan xalq og'zaki ijodida, adabiyotda, diniy va falsafiy ta'limotlarda o'z aksini topib kelgan.

O'tgan asrlar mobaynida ham insoni xususiyatla, insonparvarlik haqida ko'plab yozishgan. Shullardan biri Abdurahmon Jomiy. Abdurahmon Jomiyning insonparvarlikka oid qarashlari mutafakkirning qator asarlarida o'z ifodasini topgan. Allomaning "Bahoriston" asari uning boshqa asarlaridan farqli ravishda umuminsoniy aqidalar va insonparvarlik g'oyalarining ko'pligi bilan ajralib turadi.

Abduraxmon Jomiy (1414-1492) o'rta asr o'zbekadabiyotining yirik vakili, buyuk shoir va mutafakkirdir. Uning asarlari nafaqat badiiyjihatdanyuksak, balki teran falsafiy va axloqiy mazmun kasb etishi bilan ham ajralib turadi. Jomiy ijodi o'z davrining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muhitini aks ettirishbilanbirga, umumbashariy qadriyat va g'oyalarni ham ifoda etadi. Uning asarlarida insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy poklanishi masalalari falsafiy-tasavvufiy talqin etiladi. Jomiy asarlari orqali o'z davrining ijtimoiy-axloqiy muammolari, insonlarning ichki kechinmalari, orzu-umidlari o'z ifodasini topgan. Jomiy asarlarining qiymati nafaqat ularning badiiy mukammalligida, balki ulardailgari surilgan axloqiy-falsafiy g'oyalarning dolzarbligida ham namoyon bo'ladi. Mutafakkirning asarlarida insonni ma'naviy yuksaklikka, komillikka da'vat etuvchi qarashlar ustuvorlikqiladi. Ushbu jihatlar Jomiy merosini har tomonlama chuqur tadqiq

etish, uning ma'naviy-axloqiyqadriyatini ochib berish dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Mazkur maqolada Jomiy asarlaridagi shaxsiy qadriyatlar, davr ma'naviyati va axloq masalalarining yoritilishi tahlil qilinadi.

Jomiy boy hayot tajribaga ega edi. U insonni tug'ri yo'lga hidoyat qildi. Jomiy quyidagi g'azalida bechoralarni zolimlardan himoya qiladi va zolimlarga qaratib aytadi: " Qalbi sof odamlarga ozor berish va xalqdan tama' qilish xiradsizlar ishidir. Har narsani agar o'zingizga ravo ko'rmasangiz, boshqalarga ham ravo ko'rmang chunki kambag'allarning qalbi shisha kabi nozikdur, agar u shisha sinsa tiklab bo'lmaydi".

Jomiy asarlarida insonning ma'naviy olami, uning ichki kechinmalari, hayotiy qadriyatlari teran tasvirlangan. "Yusuf va Zulayho" dostonida sadoqat, mehr-muhabbat, sabr-toqat kabi insoniy fazilatlar ulug'lansa, "Layli va Majnun"da oshiqlik, sadoqat, ruhiykomillikmasalalari ko'tarilgan. "Xiradnomai Iskandariy"da esa odil shohlik, davlat boshqaruvigadoirqarashlar bayon etilgan. Jomiy asarlarida tasvirlangan qadriyatlar va axloqiy tamoyillarumuminsoniy ahamiyat kasb etadi. Jomiy asarlarida davr ma'naviyati va axloq masalalari ham keng yoritilgan. "Bahoriston"asarida Jomiy o'z davrining ijtimoiy muammolariga munosabat bildirgan, jamiyatdagi axloqiy-ma'naviy nuqsonlarni tanqid qilgan. Mutafakkir asarlarida komil inson g'oyasi ilgari surilganbo'lib, u yuksak axloq, ma'rifat va ma'naviyat sohibi sifatida talqin etiladi.

Jomiy Navoiy nazdidagi komil insonlardan biridir. Shubha yo'qki, Sharq shoirlari kabi Navoiy uchun ham komillar komili bu - payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomdirlar. U zotning maqomi boshqa biror inson yeta olmaydigan yuksak maqomdir. Ammo kamolotning Haqdan jazba muyassar bo'lsa, inson o'z sa'y-harakati bilan erishadigan – valiylar va orif insonlar maqomi ham borki, Navoiy ustoz Abdurahmon Jomiyni ana shunday ulug' rutbali zotlardan deb biladi. U naqshbandiya sulukining munosib davomchisi sifatida Navoiyning shu yo'ldagi piri hamdir. Haq yo'liga kirgan solik pirsiz murodga erisha olmaydi. Shayx

Farididdin Attorning quyidagi baytlari pir – Abdurahmon Jomiyning Navoiy hayotidagi o‘rni qay darajada yuksak ekanligiga ishoradir:

Pir kerak yo‘llarda, yolg‘iz yurmagil,

Ko‘r bo‘lib daryog‘a o‘zni o‘rmag‘il.

Yosh avlodni komil inson ruhida tarbiyalashda ma’naviy merosimizdagi bunyodkor g‘oyalarning o‘rni kattadir. Ayniqsa Sharq adabiyotining zabardast vakillari mavlono Abdurahmon Jomiy va hazrat Alisher Navoiyning ma’naviy merosi, undagi komil inson g‘oyasi bugungi kun tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ma’naviy manbalardan biridir. Abdurahmon Jomiyning qimmatli ma’naviy xazina bo‘lgan hikmatli fikrlari to‘plangan “Bahoriston” asaridagi g‘oyalarining ham sog‘lom avlodni tarbiyalashda o‘rni katta bo‘lib, mutafakkir tomonidan o‘z o‘g‘lining ta’lim-tarbiyasi maqsadida yozilgan bu asar butun insoniyat uchun juda keraklidir.

“Bahoriston” asarini ezgu g‘oyalar to‘plangan, hikoyat, naql, go‘zal baytlar jamlangan sakkiz jannat ravzasi bilan qiyoslash mumkin. Bu asaridagi bunyodkor g‘oyalardan biri do‘stlik, kechirimlilik, murosa va adolatdir. “Bahoriston” asarida Iskandar obrazi orqali adolatli shoh tasvirlangan. Jomiy asarda yozadiki, Iskandardan so‘rabdilar: “Nima sababdan bu davlatu saltanatni egallading va undan nima topding?” U javob berdi: “Dushmanlikni yo‘qotish, dushmanlarni do‘stga aylantirish va do‘stlikni mustahkamlash”.

Jomiy asarlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularda tasvirlangan shaxsiy qadriyatlar, davrma’naviyati va axloq masalalari bugungi kun uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Jomiyasarlaridagi axloqiy tamoyillar, qadriyatlar va g‘oyalar hozirgi davrda hamo‘z ahamiyatini saqlabqolmoqda. Jomiy tasvirlagan sadoqat, mehr-muhabbat, sabr-toqat kabi fazilatlar bugungi kundahaminsoniy munosabatlarning asosini tashkil etadi. Mutafakkirning ijtimoiy adolat, ma’rifatparvarlikg‘oyalari ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jomiy ilgari surgan

komil inson kontseptsiyasi bugungi kunda ham o'z qadrini yo'qotmagan. Jomiy asarlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda tasvirlangan shaxsiy qadriyatlar, davrma'naviyati va axloq masalalari bugungi kun uchun ham dolzarbligini yo'qotmagan. Jomiyasarlardagi axloqiy tamoyillar, qadriyatlar va g'oyalar hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini saqlabqolmoqda.

Abdurahmon Jomiy o'z davrining buyuk insonparvari bo'lib, hunarmand, dehqon, san'at namoyondasi kabi oddiy insonlarning muhabbatini himoyachi, ustoz va chinakam do'st o'rnida qozona olgan. Abdurahmon Jomiy hayotligida omma e'tirofini qozongan, jamiyat, ilm-fan, falsafa, san'at, shoirona so'zlash mahoratida baobro' inson bo'lgan. Bularning barchasiga buyuk Jomiy nomini asrlarga muhrlab qo'ygan uning umuminsoniy shoirona merosi sabab bo'lgan bo'lib, mahorati qarshisida nafaqat Sharqning ma'rifatparvar donolari, balki sharqiy davlatlarning mag'rur hukmdorlari ham bosh eggan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. - Dushanbe: "Adib", 1987. B.160.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. - T.: Xalq merosi, 2004. - B.3.
3. Nizomiddinov I. Jomiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. - T.: O'zbekiston, 1997.
4. Исҳоқов Ҳ. Ўн бир Жомий.//Ўзбек тили ва адабиёти. 1968-йил, 1-сон . – Б 45-49.
5. Фарруҳбек Олим. “Ҳамсат ул мутаҳаййирин”да Жомий сиймоси.// Ўзбек тили ва адабиёти, 2010 йил, 2-сон, 53-бет.
6. Акбаров Юсуф, Талаби ҳаёт ва қисмати адабиёт. Душанбе 1977